



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

XO‘JAOBOD TUMANI AHOLI BANDLIGINING GEOGRAFIK SHART-SHAROITLARI

O‘zganova Shoiraxon Jumaniyoz qizi

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: uzganovasoira@gmail.com

Annotatsiya: Hozirda aholi son jihatdan yildan yilga oshib borayotgan vaqtda kichik hududlarning geografik shart-sharoitlarini o‘rganish, asosan, hududlarning o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda aholining ish bilan bandligini ta‘minlash va mehnat resurslaridan to‘g‘ri foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa respublika hududlari mehnat bozorini shakllantirish imkonini beradi.

Shu sababli asosiy ko‘zlangan maqsad kichik hududlarning qishloq xo‘jalik sharoitida yerlardan unumli va to‘g‘ri foydalanib, aholi bandligi va aholining ish bilan ta‘minlanishi imkoniyatlarini geografik nuqtayi nazardan ochib berish ilmiy tavsiyalar berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: hudud, antropogen omillar, muhofazaga olingan hududlar, Oq-bura daryosi

GEOGRAPHICAL CONDITIONS OF POPULATION OF KHOJAABAD REGION

Uzganova Shoirakhon

Annotation: Currently, as the population grows year after year, a study of the geographical conditions of small areas opens up the possibility of ensuring employment and proper use of labour resources, mainly taking advantage of the internal capabilities of the regions. This allows regional areas to form a labor market.

Therefore, the main objective is to provide scientific recommendations on how to unevenly and properly use land in agriculture in small areas to geographically explain the possibilities of population growth and employment of the population.

Keywords: territory, anthropogenic factors, protected areas, the Oq-bura river and so on.

Hozirgi davrda tez sur‘atda o‘sib borayotga aholi va shunga bog‘liq ravishda ehtiyojlarning ham o‘sishi har bir yerdan to‘g‘ri va unumli foydalanishga, fan-texnikaning rivojlanishi esa yerlarning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aniq dalillar bilan tashkil etilishini taqozo qilmoqda. Fanning amaliy jihati ham ana shunda ilmiy tarzda o‘rganib, kuzatishlar olib borib umumiy nazariy xulosalar berishdir. Ana shunday kuzatuv sharoitida o‘rganib xulosalar berish geografiya fanining amaliy jihati hisoblanadi.

Hududlar – bu iqtisodiy yoki tabiiy jihatdan qanday bo‘lishidan, qay tarzda insonlarga foydasi tegishidan qat’iy nazar, jonli tabiatning bir qismi sifatida muhofazaga muhtojdir. Sababi, tabiatning muhofazaga muhtoj bo‘lishiga, avvalo, ongli jonzotlarning, ya’ni insonlarning omili kuchliroqdir. Umumiy qilib olganda, dunyo miqyosida yoki mintaqaviy holda olingan tabiat muammolarining asosiy negizi antropogen omillar natijasida yuz bermoqda. Shunday ekan o‘rganilayotgan yer, xoh u yirik hudud, xoh kichik hudud bo‘lsin, inson ongli tarzda kelajak avlod uchun ham tabiatni muhofaza qilishi asrash uchun harakat qilishi kerak.

Har bir ma’muriy birlikning aholiga bog‘liq ravishda hududning tabiiy geografik o‘rni jihatidan muhofazaga olingan hududlar mavjud bo‘lishi mumkin. Muhofazaga olingan hududlar – bunday hududlarga qanday geografik hududlar kiritiladi va nima uchun ular alohida muhofaza qilinadi? O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi 2004-yil 3-dekabr 710-II son Qonuniga binoan: “Muhofazaga olingan hududlar yerlarning yoki suv kengliklarning (akvatoriyalarning) ustuvor, ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik bo‘lgan xo‘jalik maqsadida doimiy yoki vaqtincha foydalanish to‘liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi. “Har bir muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar o‘ziga xos funksiyalarga ega va aynan bunday hududlar chegaralarida qolishining qoidalari, shuningdek, resurslardan foydalanish tartibi mavjud. Shuningdek, yuqorida ta’kidlangan Qonunning 9 moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi ishlar davlat nazorati haqida ma’lumot berilgan.

Respublikamizning sharqiy qismida joylashgan Farg‘ona vodiysining g‘arbiy va markaziy qismlari O‘zbekiston hududiga tegishli bo‘lib, vodiya nafaqat tog‘ tizmalari, balki suv resurslari bilan ham bir-birga zanjir bo‘lib bog‘langan. Andijon viloyating Xo‘jaobod tumani sug‘orma dehqonchiligi muhim daryolardan biri qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasi Oqbura daryosi orqali sug‘oriladigan hududlar hisoblanadi. Suv toshqinlaridan muhofaza qilish va aholi ekinlariga zarar yetkazaslik uchun daryoning O‘zbekistonda o‘tgan hududida 1965–1970-yillarda bunyod etilgan alohida muhofaza etiladigan yerlar tashkil qilingan. Hozirgi kunda bu yerlardan tuman aholisi sholi, bug‘doy yetishtirish va baliqchilik bilan shug‘ullanib kelishmoqda. Daryoning muhofazaga olingan hududi, asosan, geologik jihatdan daryodan qurigan yerlar bo‘lganligi uchun, asosan, mayda toshlar, ya’ni shag‘al bilan qoplangan. Har bir yerdan, avvalo, o‘sha hududning geografik jihatlarini to‘g‘ri baholab hudud ekinlarini to‘g‘ri tashkil etish hozirgi vaqtda ish unumini oshiruvchi omillardan hisobladi. Faqatgina mavsumiy, asosan, suvga bog‘liq bo‘lgan mahsulotlar yetishtirish to‘g‘ri, lekin muhofaza olingan hududning tabiiy-geografik imkoniyatlaridan foydalangan holda boshqa ekinlarni

tashkillashtirish hudud imkoniyatini yanada ochilishiga yordam beradi. Masalan, muhofaza olingan yerlarning tuprog‘i, iqlimi, suv resurslari jihatidan baholab bu hududlarga shakar yoki qandlavlagi ekilishi va bu bilan bog‘liq texnologiyani tumanga olib kelish nafaqat tumanning, keyinchalik viloyat aholisining shakarga va shakar mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirilishiga o‘zini hissasini qo‘shishga yordam beradi. Xo‘sh, nima uchun aynan qandlavlagi?

Qandlavlagi issiqlikni va suvni ko‘p talab qiladigan mahsulot hisoblanib, aynan yuqorida tilga olingan yerlarda bunga sharoit borligini guvohi bo‘lamiz. Daryo muhofazasi uchun tashkil etilgan hudud tuproq tarkibida tosh va tosh mahsulotlarini ko‘pligi issiqlikni ta‘minlashga daryo havzasi yaqinligi esa suv bilan to‘yinishiga yordam beradi. Qandlavlagining qay darajada issiqlik olishi undan olinadigan shakar mahsulotining sifatiga suvning ko‘pligi mahsulotning miqdoriga ta‘sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tumanda aholi soni oshib borayotgan vaqtda tumanning o‘z ichki imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, iqtisodiyot sohalarining rivojlanishiga, bu bilan birgalikda sanoat mahsulotlarning turlari ko‘payishiga, tannarxi esa tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. Birgina tumanning o‘zida paxta klasterining tashkil etilganligi, bu asosan yengil sanoatning taraqqiy etishi va qishloq xo‘jalik mahsulotlari, aynan sabzavotchilik, kartoshkachilik, donchilik tarmoqlarini va shu bilan birgalikda, aholi uchun bo‘sh ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Aynan, yuqoridagi ta‘kidlangan hududlardan unumli foydanib ichki imkoniyatlar, ya‘ni hududning iqlimi, tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda qandlavlagi yetishtirishni joriy qilish, avvalo, tumandagi mavjud bo‘lgan shakar ehtiyojini qodirish, shu bilan birgalikda qishloq xo‘jaligining chorvachilikka yem boshqa mahsulotlar berish, keyinchalik esa respublikamizdagi shakar monopoliyasiga ta‘sir etish imkoniyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Muhofaza etiladiga tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni 03.12.2004-yildagi 710-II-son, 4-va 9 moddalarini – <http://lex.uz>
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. 2-jild. – B. 160.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2002
4. Xo‘jaobod tuman pasporti